# XORAZM VILOYATIDA UMUMIY O‘RTA TA'LIM TIZIMI










Umumiy o‘rta ta’lim tizimi, boshlang‘ich (I - IV sinflar), tayanch o‘rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o‘rta ta’lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo‘lib, kunduzgi ta’lim shaklida faoliyat yuritadi.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim tarbiya tizimi to‘g‘risida gapirganda, shoirlarimizdan biri Abdulla Avloniyning shunday fikrlarini aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim tarbiya biz uchun hayot – mamot masalasidir. Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta’lim tizimi qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta’lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta’lim negizida amalga oshirilmoqda. Yuqori malakali, sohasining bilimdoni bo‘lgan o‘qituvchi pedagoglar bazasini shakillantirish bilan birgalikda mamlakatda chet tillarni o‘qitishga e’tibor qaratilmoqda. Bu kabi maktablarning tashkil etilayotgani yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyatga ega.

Xalq ta’limi vazirligi hamda boshqa idoralarning umumta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma’lumotlari bo‘yicha 2019/2020 - o‘quv yili boshiga umumiy o‘rta ta’limning asosiy statistik ko‘rsatkichlari shakllantirildi.

Xorazm viloyatida 2019/2020 - o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari soni 556 tani tashkil etib, ulardan 379 ta (68,2 %i) qishloq joylarida, 177 tasi (31,8 %i) shahar joylarda joylashgan.

**Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




2018/2019- o‘quv yilining mos davriga nisbatan taqqoslanganda umumiy o‘rta ta'lim muassasalari soni 5,7 % (30 ta) ga oshdi.

**2018/2019 va 2019/2020 - o‘quv yillarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari soni, birlikda**



## Umumta’lim muassasalarining turlariga ko‘ra taqsimlanishi

Xorazm viloyatida umumta’lim muassasalari uch turga bo‘linadi: bular boshlang‘ich, umumiy o‘rta va boshqalar hisoblanadi. 2019/2020 o‘quv yili boshiga kelib umumiy umumta’lim muassasalarining 550 tasini umumiy o‘rta ta’lim maktablari, 2 tasini boshlang‘ich maktablar va 4 tasini boshqa muassasalar tashkil etdi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jami 352,0 ming nafar, boshlang‘ich muassasalarda 0,01 ming nafar va boshqa muassasalarda 0,1 ming nafar o‘quvchilar tahsil olmoqda.

### Umumta’lim muassasalarini hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




### Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, % da




2019/2020 o‘quv yili boshiga, Xorazm viloyati bo‘yicha jami umumta’lim muassasalarida 352,0 ming nafar o‘quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz) ta’lim olayotgan bo‘lib, ulardan 180,2 ming nafari (51,2%) o‘g‘il bolalar, 171,8 ming nafari (48,8%) qiz bolalarni tashkil etadi.

# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2019/2020 - o‘quv yili boshiga umumta’lim muassasalarining jami o‘quvchilari soni 352,0 ming kishini tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, o‘quvchilar soni qariyib 3,3% ga o‘sdi.

## 2019/2020 - o‘quv yili boshiga tumanlar kesimida umumta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar soni*, ming kishi

| | 2018/2019 -o‘quv yili, ming kishi | 2019/2020- o‘quv yili, ming kishi |
|---|---|---|
| Urganch sh. | 36,0 | 38,3 |
| Xiva sh. | 18,7 | 19,8 |
| Bog‘ot | 30,0 | 30,8 |
| Gurlan | 27,9 | 28,2 |
| Qo‘shko‘pir | 30,1 | 31,4 |
| Urganch | 27,6 | 28,7 |
| Hazorasp | 45,6 | 46,2 |
| Xonqa | 34,3 | 34,9 |
| Xiva | 26,3 | 27,0 |
| Shovot | 29,6 | 30,6 |
| Yangiariq | 19,5 | 20,3 |
| Yangibozor | 15,7 | 15,8 |

## 2019/2020 - o‘quv yili boshiga tumanlar kesimida umumta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar soni, ming kishi




** jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarisiz*

## Umumta’lim muassasalarida sinflar bo‘yicha o‘quvchilar soni*, ming kishi

| | O‘quvchilar soni jami | 1 - sinf | 2 - sinf | 3 - sinf | 4 - sinf | 5 - sinf | 6 - sinf | 7 - sinf | 8 - sinf | 9 - sinf | 10 - sinf | 11 - sinf |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 352,0 | 32,9 | 34,4 | 35,4 | 35,7 | 35,8 | 35,5 | 31,7 | 29,6 | 28,6 | 25,7 | 26,6 |
| Urganch sh. | 38,3 | 3,6 | 3,7 | 3,9 | 3,9 | 3,8 | 3,7 | 3,6 | 3,4 | 3,1 | 2,8 | 2,9 |
| Xiva sh. | 19,8 | 1,8 | 1,7 | 1,9 | 1,9 | 2,2 | 2,0 | 2,0 | 1,9 | 1,6 | 1,3 | 1,3 |
| Bog‘ot | 30,8 | 3,1 | 3,1 | 2,9 | 2,9 | 3,2 | 3,0 | 2,8 | 2,7 | 2,6 | 2,2 | 2,4 |
| Gurlan | 28,2 | 2,4 | 2,5 | 2,8 | 2,9 | 2,8 | 2,8 | 2,9 | 2,4 | 2,4 | 2,1 | 2,2 |
| Qo‘shko‘pir | 31,4 | 3,1 | 3,1 | 3,1 | 3,4 | 2,9 | 3,2 | 2,6 | 2,5 | 2,5 | 2,6 | 2,4 |
| Urganch | 28,7 | 2,6 | 2,8 | 3,0 | 2,9 | 2,9 | 3,3 | 2,5 | 2,3 | 2,3 | 2,0 | 2,1 |
| Hazorasp | 46,2 | 4,2 | 4,9 | 5,1 | 4,7 | 4,6 | 4,4 | 3,9 | 3,7 | 3,8 | 3,4 | 3,5 |
| Xonqa | 34,9 | 3,1 | 3,3 | 3,4 | 3,6 | 3,6 | 3,8 | 2,9 | 2,8 | 2,7 | 2,6 | 2,9 |
| Xiva | 27,0 | 2,6 | 2,7 | 2,7 | 2,7 | 2,7 | 2,7 | 2,4 | 2,4 | 2,3 | 1,8 | 2,0 |
| Shovot | 30,6 | 3,1 | 3,3 | 3,0 | 3,0 | 3,4 | 2,9 | 2,6 | 2,5 | 2,4 | 2,2 | 2,0 |
| Yangiariq | 20,4 | 1,9 | 2,0 | 1,9 | 2,1 | 2,1 | 2,1 | 1,9 | 1,7 | 1,6 | 1,5 | 1,6 |
| Yangibozor | 15,8 | 1,5 | 1,5 | 1,7 | 1,5 | 1,4 | 1,7 | 1,5 | 1,3 | 1,2 | 1,3 | 1,2 |





2019/2020 o‘quv yili boshiga, umumta’lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o‘quvchilar soni bo‘yicha eng yuqori ko’rsatkichga ega hudud Hazorasp, Urganch shahar va Qo‘shko‘pir tumanlarida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Yangibozor va Xiva shahrida kuzatilgan.

** jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz*

## Umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar sonini yoshlari bo‘yicha taqsimlanishi*, ming kishi



| | O‘quvchilar soni jami | 6 yosh | 7 yosh | 8 yosh | 9 yosh | 10 yosh | 11 yosh | 12 yosh | 13 yosh | 14 yosh | 15 yosh | 16 yosh va undan katta |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xorazm viloyati | 352,0 | 3,0 | 32,5 | 34,1 | 34,9 | 36,3 | 35,0 | 34,9 | 31,4 | 29,4 | 29,0 | 51,3 |
| Urganch sh. | 38,3 | 0,5 | 3,5 | 3,7 | 3,8 | 3,9 | 3,7 | 3,7 | 3,6 | 3,3 | 3,2 | 5,5 |
| Xiva sh. | 19,8 | 0,2 | 1,7 | 1,7 | 1,9 | 2,0 | 2,2 | 2,0 | 1,9 | 1,9 | 1,7 | 2,4 |
| Bog‘ot | 30,8 | 0,0 | 3,0 | 3,1 | 2,9 | 2,9 | 3,2 | 3,0 | 2,8 | 2,7 | 2,6 | 4,6 |
| Gurlan | 28,2 | 0,2 | 2,4 | 2,5 | 2,7 | 2,9 | 2,8 | 2,9 | 2,7 | 2,4 | 2,4 | 4,3 |
| Qo‘shko‘pir | 31,4 | 0,4 | 3,1 | 3,1 | 3,0 | 3,4 | 2,8 | 3,1 | 2,6 | 2,5 | 2,5 | 4,9 |
| Urganch | 28,7 | 0,3 | 2,5 | 2,7 | 3,0 | 3,0 | 2,9 | 3,0 | 2,5 | 2,4 | 2,3 | 4,1 |
| Hazorasp | 46,2 | 0,1 | 4,3 | 4,8 | 5,0 | 4,8 | 4,6 | 4,3 | 3,9 | 3,6 | 3,9 | 6,8 |
| Xonqa | 34,9 | 0,2 | 3,1 | 3,4 | 3,3 | 3,7 | 3,5 | 3,7 | 3,0 | 2,8 | 2,8 | 5,5 |
| Xiva | 27,0 | 0,2 | 2,6 | 2,6 | 2,6 | 2,8 | 2,7 | 2,6 | 2,5 | 2,3 | 2,3 | 3,7 |
| Shovot | 30,6 | 0,5 | 3,1 | 3,2 | 3,0 | 3,2 | 3,1 | 2,9 | 2,6 | 2,4 | 2,5 | 4,1 |
| Yangiariq | 20,4 | 0,2 | 1,8 | 1,9 | 1,9 | 2,1 | 2,1 | 2,1 | 1,8 | 1,6 | 1,7 | 3,1 |
| Yangibozor | 15,8 | 0,3 | 1,4 | 1,5 | 1,6 | 1,6 | 1,5 | 1,6 | 1,4 | 1,3 | 1,3 | 2,4 |

2019/2020 o‘quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz) umumta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 6 yoshli o‘quvchilar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Shovot tumani va Urganch shahrida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Bog‘ot va Hazorasp tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

** jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz*

# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Umumta'lim muassasalarida 11 sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi*, ming kishi




2019/2020 o'quv yili boshiga Xorazm viloyatida umumta'lim muassasalarining 11-sinfini tamomlaganlar soni 20,5 ming nafarni tashkil etgan. Viloyatimiz bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Hazorasp tumanida (3,3 ming nafar) va Xonqa (2,2 ming nafar) tumanlariga to'g'ri keladi, Xiva shahar (0,7 ming nafar) va Yangibozor (1,2 ming nafar) tumanlarida eng kam ko'rsatkich qayd etilgan.

## Umumta'lim muassasalarida 11 sinfni bitirgan o'quvchilarning (qizlar) hududlar kesimida taqsimlanishi*, ming kishi




** jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz*

2019/2020 o‘quv yili boshiga mashg‘ulotlar smenaliligi bo‘yicha umumta’lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 34,9 % maktab bir o‘quv smenasida (2018/2019-o‘quv yili boshiga 26,8 %), 65,1 % maktab ikki o‘quv smenasida (2018/2019 o‘quv yili boshiga 73,2 %) ishlaydi.

Smenalar bo‘yicha ta’lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 71,1 % (2018/2019 o‘quv yili boshiga 68,6 %), ikkinchi smenada 28,9 % (2018/2019 o‘quv yili boshiga 31,4 %) o‘quvchilar ta’lim olmoqda.

## Umumta’lim muassasalari mashg‘ulotlarining smenaliligi*, % da




## Umumta’lim muassasalari mashg‘ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida*, birlikda




* jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz

## Hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning ulushi *

| | 2018/2019 o'quv yilida jami o'qituvchilar soni, kishi | 2018/2019 o'quv yilida o'qituvchilar ulushi, jamiga nisbatan %da | 2019/2020 o'quv yilida jami o'qituvchilar soni, kishi | 2019/2020 o'quv yilida o'qituvchilar ulushi, jamiga nisbatan %da |
|---|---|---|---|---|
| Urganch sh. | 2500 | 8,9 | 2820 | 9,3 |
| Xiva sh. | 1079 | 3,8 | 1371 | 4,5 |
| Bog‘ot | 2549 | 9,0 | 2681 | 8,8 |
| Gurlan | 2470 | 8,8 | 2642 | 8,7 |
| Qo‘shko‘pir | 2973 | 10,6 | 3043 | 10,0 |
| Urganch | 2154 | 7,6 | 2374 | 7,8 |
| Hazorasp | 3445 | 12,2 | 3825 | 12,6 |
| Xonqa | 3261 | 11,6 | 3429 | 11,3 |
| Xiva | 1957 | 6,9 | 2111 | 6,9 |
| Shovot | 2718 | 9,6 | 2753 | 9,0 |
| Yangiariq | 1842 | 6,5 | 2040 | 6,7 |
| Yangibozor | 1271 | 4,5 | 1349 | 4,4 |

## Hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning soni *, birlik




* o‘rindoshlarsiz

## Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari.

*O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), ming kishi*

| | O'qituvchilar jami | ulardan ayollar | Oliy ma'lumotli o'qituvchilar | ulardan pedagogik | O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar | ulardan pedagogik |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Urganch sh. | 2,8 | 2,3 | 2,7 | 2,7 | 0,1 | 0,1 |
| Xiva sh. | 1,4 | 1,1 | 1,1 | 1,1 | 0,3 | 0,3 |
| Bog'ot | 2,7 | 1,8 | 2,4 | 2,4 | 0,3 | 0,3 |
| Gurlan | 2,6 | 1,8 | 2,4 | 2,4 | 0,2 | 0,2 |
| Qo'shko'pir | 3,0 | 2,3 | 2,5 | 2,5 | 0,5 | 0,5 |
| Urganch | 2,4 | 1,9 | 2,2 | 2,2 | 0,2 | 0,2 |
| Hazorasp | 3,8 | 2,7 | 3,1 | 3,1 | 0,7 | 0,7 |
| Xonqa | 3,4 | 2,7 | 3,1 | 3,1 | 0,3 | 0,3 |
| Xiva | 2,1 | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 0,5 | 0,5 |
| Shovot | 2,8 | 2,1 | 2,5 | 2,5 | 0,3 | 0,3 |
| Yangiariq | 2,0 | 1,5 | 1,7 | 1,7 | 0,3 | 0,3 |
| Yangibozor | 1,4 | 1,1 | 1,3 | 1,3 | 0,1 | 0,1 |

2019/2020 o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) 30,4 ming nafarni tashkil etib, ulardan 64,9%i qishloq maktablarida, 35,1%i shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda.

## Umumta'lim muassasalarida pedagog xodimlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari 2019/2020 - o‘quv yili boshiga 7,4 % ga o‘sdi va 31,2 ming kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o‘sish 1,8 % ga, qishloq joylarida esa 10,7 % ga yetdi.

2019/2020-o‘quv yilida jami o‘qituvchilarga nisbatan ayol - o‘qituvchilarning (o‘rindoshlarni qo‘shgan holda) ulushi 74,8%ni tashkil qildi. Xorazm viloyatida bitta o‘qituvchiga (o‘rindoshlarsiz) o‘rtacha 12 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelmoqda.

## 2019/2020 - o‘quv yili boshiga hududlar kesimida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi




Keltirilgan jadvaldan ko‘rinadiki, bir nafar o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan yuklama nisbatan ko‘proq Xiva shahrida - 15 o‘quvchi va Urganch shahrida bir nafar o‘qituvchiga 14 o‘quvchidan to‘g‘ri keladi. Bir o‘qituvchi uchun 10 kishidan iborat eng kichik yuklama Qo‘shko‘pir, Xonqa va Yangiariq tumanlarida qayd etilgan.

# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda




2019/2020 o‘quv yili boshida viloyatimizda 552 ta umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar xorijiy tillardan saboq oladi. Shulardan, 524 tasida ingliz tili, 128 tasida nemis tili, 159 tasida fransuz tillarida olib boriladi.

## Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarini hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi

| | Jami | ingiliz | fransuz | nemis | ispan | koreys | boshqa |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Urganch sh. | 39,3 | 36,9 | 0,0 | 1,4 | | 1,0 | |
| Xiva sh. | 20,1 | 17,2 | 0,2 | 2,4 | | | 0,3 |
| Bog‘ot | 30,8 | 19,9 | 4,9 | 6,0 | | | |
| Gurlan | 28,2 | 24,4 | 2,8 | 0,8 | 0,2 | | |
| Qo‘shko‘pir | 31,4 | 18,1 | 7,6 | 5,6 | 0,1 | | |
| Urganch | 28,7 | 24,7 | 1,7 | 2,3 | | | |
| Hazorasp | 46,2 | 38,8 | 3,4 | 4,0 | | | |
| Xonqa | 34,9 | 24,3 | 4,1 | 6,5 | | | |
| Xiva | 27,0 | 21,7 | 0,6 | 3,9 | 0,8 | | |
| Shovot | 30,6 | 18,0 | 11,4 | 1,2 | | | |
| Yangiariq | 20,4 | 17,6 | 2,1 | 0,6 | | | |
| Yangibozor | 15,8 | 13,6 | 2,0 | 0,3 | | | |

2019/2020 o‘quv yili boshida mamlakatimizda 552 ta umumta’lim muassasalarida (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablaridan tashqari) 353,2 ming nafar o‘quvchi xorijiy tillaridan tahsil oladi. Shundan, 275,2 ming nafari (77,9%) ingliz tili, 34,9 ming nafari (9,9%) nemis tili, 40,9 ming nafari (11,6%) fransuz tili, 1,0 ming nafari (0,3%) ispan, 1,0 ming nafari (0,2%) koreys, boshqa xorijiy tillar 0,03 ming nafar (0,1%) o‘rganishmoqda.



## Ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi




Viloyatimizda umumta’lim muassasalarida 275,2 ming nafar o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda. Jumladan, Hazorasp tumanida 38,8 ming nafarni (11,0%), Urganch shahrida 36,9 ming nafarni (10,4%) tashkil etgan bo‘lsa, bu borada eng past ko‘rsatkich Yangibozor tumanida qayd etilgan, ya’ni 13,6 ming nafar (3,8%) o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda.

# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi

### Umumta’lim muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan ta’minlanganligi bo‘yicha dinamikasi, birlikda




Xorazm viloyatida 2019/2020 o‘quv yili boshiga kompyuter sinflariga ega bo‘lgan umumta’lim muassasalar soni 543 tani tashkil etgan bo‘lib, bu jami umumta’lim muassasalarning 97,7%ini tashkil etadi.

Ular 10,6 ming dona kompyuterlar bilan ta’minlangan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 ming donaga, ya’ni (53,1%)ga oshgan.

2017/2018 o‘quv yili boshida har ming o‘quvchiga 20 donadan kompyuterlar soni to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, joriy yilda 30 donadan to‘g‘ri kelgan.